

MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ IJODI VA AYRIM G'AZALLARI TAHLILI.

Ochilova Lobar Ulug'bek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

O'zbek tili ta'limi fakultetining 2-kurs talabasi

E-mail: ochilovalobar9804@gmail.com

+998995409381

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rahimxon Feruzning ijodi va “Kelgil”, “Aylab”, va “Yo, rab” radifli g'azallarining tahlili va ushbu g'azallarning badiiy tasvirlari ochib berilgan. Ushbu g'azallarda qo'llanilgan tasviriy vositalar tahlil etilgan. Uning she'rlaridagi yor visoli vatan go'zalligiga qiyoslanib, aynan vatanga kirib kelgan bahor latofatini ma'shuqaga timsol qilib olganiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Muhammad Feruz, shoir, san'at vakili, xon, tarixchi, ishq, g'azal, misra, lirik qahramon, masnaviy, ruboiy, muxammas, ma'shuqa, tasviriy vosita, tabiat, visol.

O'zbekiston o'z shoirlari, yozuvchilari, san'at vakillari, tarixchi va ma'rifatparvarlariga ega yurtidir. Bu go'shada biz bilgan, bilmagan, ijodidan dillarimiz bahramand bo'lgan va nazarimizdan chetda qolgan ijodkorlar talaygina. Bizning vazifamiz esa o'z ijodi ila zamonasining yetakchi arboblari bo'lgan, ammo ayrim sabablarga ko'ra yaratgan asarlari yoshlar e'tiboridan chetda qolib ketgan shoir va san'at xodimlarining yaratgan asarlarini o'rganib, uni adabiyot shonavdalariga taqdim etishdir. Xuddi shunday ijodkorlardan biri davlat arbobi, madaniyat va san'at xodimi, ma'rifatparvar Muhammad Rahimxon Feruzdir. Siz-u bizga Xiva xoni sifatida tarixdan tanish bo'lgan Muhammad Feruz XI asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan. Xorazm adabiyoti tarixida Feruzning hissasi beqiyosdir. Uning homiyligida o'nlab shoirlar saroyda badiiy ijod bilan shug'ullanganlar. Ulardan chetda qolmagan holda Feruzning o'zi ham ijod bilan shug'ullangan. Ammo uning bizgacha yetib kelgan merosi katta emas. Umumiy hajmi 2534 misradan-98 g'azal, 7 muxammas, 706 misrani o'z ichga olgan 4 masnaviy va 7 ruboiydan iboratdir.⁴³

Komil ersam nazm aro Feruzdek, ermas ajab,

Ogahiydek seh'r mashq aylarda ustodim mening.

⁴³ Begali Qosimov va boshqalar. “Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti”. T., Ma'maviyat. 2004.78-bet

“Ishqiy g‘azallar piri” deya e’tirof etilgan Feruz lirikasining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Shoir bu mavzuda o‘ziga xos jozibali she’rlar yaratgan. Uning lirikasida shohning emas, oddiy insonning, oshiqning ruhiy kechinmalari, iztiroblari o‘z ifodasini topgan. Badiiy tasvir vositalari orqali oshiqning hijron kechinmalari, ishq yo‘lidagi azob-u iztiroblari, ma’shuqaning go‘zal jamoli mohirona ochib berilgan.

Feruz g‘azallarida yuksak insoniy fazilatlar egasi- oshiq haqida , go‘zallikda yagona, ba‘zan mehribon, ba‘zan zulmkor ma’shuqa timsoli turadi. Ishq mavzusidan tashqari Feruzning bir qator she’rlarida vatan , vatanning ko‘rkam bahori, uning go‘zal tarovati nihoyatda ta’sirli ifodalanadi:

Ochilmish gul, eturmish bog‘a ziynat, ey sanam, kelgil,

Icharga bir nafas ahbob birla jomi Jam, kelgil...

To‘shab bargini gul yer uzra, tortar intizoringni,

Guluston ichra gul bargi uza qo‘yib qadam, kelgil.

Feruzning “Kelgil” radifli g‘azalida bahor kelishi bilan tabiat, borliq butun go‘zalligini namoyish etar ekan, ma’shuqaning ham o‘z jamolidan pardani olib, oshiq ko‘zlarini ravshan qilishini iltijo etmoqda. Shoir bunday go‘zal tabiatni g‘animat bilib, undan bahramand bo‘lishga da’vat etmoqda. G‘azalni tahlil etar ekanmiz, Feruzning so‘z qo‘llash mahoratini nihoyatda kuchli va nozik didli ekanini ko‘rishimiz mumkin. Vatan go‘zalligi ila yor visolini tasvirlash orqali g‘azalning badiiy ta’sirini yanada oshirmoqda. Bu esa badiiy ta’sirni yanada kuchliroq bo‘lishiga imkon beradi.

Feruzning ishqiy she’rlari, asosan, an’anaviy yo‘nalishda, badiiy tasvir vositalari ham oshiqning hijron kechinmalarini, ma’shuqaning go‘zal husn-u jamolini, noz-u karashmalarini tasvirlashga qaratilgan. Shoir tasvirida ma’shuqa nihoyatda iltifotli, rahmdil, uning har so‘zi Masih kabi o‘lik jismga jon ato etadi, uning jamolidan oshiqning shomi subhga, ag‘yorning subhi shomga aylanadi. Oshiq- shoir dilbarining bunday iltifotidan shu darajada mamnunki, unga Allohdan oliy maqom-u shodlik tilaydi:

Bu oqshom keldi ul dilbar adab birla salom aylab,

O‘luk jismimga jon berdi Masihoso kalom aylab.

Ayon aylab jamolin qildi shomim subhga tabdil,

Yuzi hijronida ag‘yorning subhini shom aylab.

Ki: “Ey, hajrimda ko‘ngli loladek dog‘ uzra dog‘ o‘lg‘on,

Yurursan bo‘yla toki ayshu rohatni xarom aylab?

She’rga chuqurroq e’tibor berilsa, shoir tazod, tashbih, savol-javob, talmeh kabi she’riy san’atlarni mohirona qo‘llaganining guvohi bo‘lamiz.

Shoir ma'shuqa tavrini chizishda mumtoz adabiyotimizda mavjud timsollar, tashbihlardan juda o'rinli foydalangan.

Feruz she'riyatda qofiyaga alohida e'tibor beradi. Ma'lumki, qofiya she'r badiiyatini, musiqiyiligini ta'minlovchi asosiy unsurlardan biri. Shu bilan birga, qofiya fikr va g'oyani bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Feruz she'rlarida qofiyaning deyarli barcha turlarini kuzatish mumkin. Shulardan biri musajja' - sajli qofiyadir. G'azali musajja'da har bayt (matla'dan tashqari) misralari to'rt bo'lakka bo'linib, uch bo'lak o'zaro qofiyalanadi. To'rtinchi bo'lak esa matla' bilan qofiyadosh bo'ladi. Sajli qofiya she'rning ohangdorligini orttiradi. Tabiiyki, bu shoirdan anchagina mahorat talab qiladi. Feruzning quyidagi g'azali shu jihatdan alohida ahamiyatga ega:

Shod o'lg'il, ey, mahzun ko'ngul, bu kecha dildoring kelur,

Shirin takallum, gulbadan, la'li shakarboring kelur.

Soz ayla aysh asbobini, ochg'il tarab abvobini,

Ruxsori olamtobini ochib sevar yoring kelur...

Mahzun qilib ag'yorni, shod etgil sen zorni,

Tark aylabon ozorni, yori vafodoring kelur.

She'rning muhim fazilati shundaki, shoir ma'shuqaning butun go'zalligini, uning vafosidan, lutf-karamidan umidvorligini, oshiqning unga bo'lgan samimiy munosabatlarini go'zal badiiy san'atlar yordamida tasvirlaydi.

Muhammad Rahimxon Feruz ijodining boshqa ijodkorlarning asarlaridan farqi shundaki, unda yor vasli, Vatan madhini tasvirlashda adabiy san'at vositalaridan juda unumli foydalangan. Ayni shu xususiyati g'azallarining o'qishli va tilining soddaligi kishi xotirasida tezda saqlanib qolinishiga ko'mak beruvchi vosita bo'lgan. Shu bilan birga, shoir o'zbek adabiyotining buyuk salafлари, ijodkorlarining ijodini chuqur o'rganib, tahlil qilgan. Ularga javoban naziralar bitdi. Ma'lumki, har bir shoir o'z she'r va g'azallarida oshiq va ma'shuqa timsolini tasvirlaydi ya'ni unda yorning go'zalligi, husn-u malohati, kulgichlari, mayin tabassumi nozik ifoda vositalari bilan tasvirlanadi. Muhammad Rahimxon Feruz g'azallariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning har birida lirik qahramonning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning ruhiyatiga, ichki olamiga, dunyoqarashiga ko'proq ta'rif beriladi. Feruzning mahoratli ijodkor ekanligi har bir fikrni qofiya bilan bir satrda bir nechta qofiyali jummalarni qo'llay olishida yaqqol o'z isbotini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xarazmshohiy. T., Kamala, 1991, 258-bet.

2. Комил Аваз. " Гарчи эрурман толеъи Феруз" // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1994 йил 30 сентябрь.
3. Begali Qosimov va boshqalar. "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti". T., Ma'naviyat. 2004.78-bet